



## OLIV TA'LIM MUASSASALARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK SHART- SHAROITLAR

**A.B.Xalimov**

Oriental universiteti magistranti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8027825>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-June 2023 yil  
Ma'qullandi: 08-June 2023 yil  
Nashr qilindi: 12-June 2023 yil

### KEY WORDS

*Oliy ta'lim, transformatsiya, tashkiliy-pedagogik, globallashuv, mexanizm, kvalifikatsiya, transformatsion jarayonlar*

### ABSTRACT

*Maqola oliy ta'lim muassasasi transformatsiyasining tashkiliy-pedagogik sharoitlarini rivojlantirishning hozirgi kundagi dolzarbligi va ahamiyati haqida bo'lib, ko'proq e'tibor oliy ta'lim muassasasini transformatsiya qilishda ahamiyat beriladigan jihatlar hamda tashkiliy-pedagogik sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan.*

Dunyoda ta'limning globallashuvi va axborotlar oqimining tezkor rivojlanishi jarayonlarida oliy ta'lim muassasalarining transformatsiyasi muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. YUNESKO ning oliy ta'lim kvalifikatsiyalarini tan olish to'g'risidagi Global konvensiyasida oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanadigan yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash va ularning innovatsion rivojlanishini ta'minlash oliy ta'lim muassasalaridagi transformatsion jarayonlar bilan uzviy bog'liqligi alohida qayd etiladi. Bu o'z navbatida oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, ta'limdagi innovatsion jarayonlar hamda raqamli texnologiyalarga asoslangan transformatsion jarayonlarni taqazo etmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida oliy ta'lim muassasalarining innovatsion salohiyatini oshirish, ularni zamonaviy ta'lim kampusi sifatidagi ijtimoiy-madaniy mavqeni mustahkamlash, kreativ-ilmiiy infrastrukturasi takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur jarayonlarda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalaridan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarini transformatsiyasining tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarini yaratish, raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning samarali mexanizmlarini joriy etish, ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash hamda sifat menejmenti tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarini nufuzli xorijiy oliy ta'lim dargohlari bilan hamkorlikda transformatsiya qilish, raqamli ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish asosida bilimlar transferini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "Ilm-fan taraqqiyotiga ko'maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarining innovatsion infratuzilmasini

shakllantirish, ularning transformatsiyasini rivojlantirish”<sup>1</sup> vazifalari belgilandi. Bu esa oliy ta’lim muassasalari transformatsiyasining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini yaratish va uning tashkiliy-boshqaruv, pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishni taqazo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020 yil 29 oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalarini va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 27 oktabrdagi 655-son “Oliy ta’lim muassasalarini nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Transformatsiya (ingl. transformation) bu ma’lum bir ijtimoiy-madaniy birlashma yoki yaxlitlikning krizisga uchrashi natijasida uning tashqi ta’sirlar natijasida yangitdan paydo bo‘lishi va rivojlanishi sifatida tushuniladi.

Ta’limdagi transformatsion jarayonlar esa, ta’lim jarayonlarini modernizatsiyalash, ilg‘or xorijiy tajribalar, innovatsion yondashuvlar vositasidagi yangilanish, o‘zgarish jarayonlari sifatida tushuniladi.

Oliy ta’lim muassasasi transformatsiyasining ijtimoiy-pedagogik zaruratini asoslaydigan muhim komponentlardan biri ham ta’lim sifati va ta’lim sifatini boshqarish bilan bog‘liq jarayonlarning asosi ta’limdagi innovatsion jarayonlar sanaladi. Oliy ta’lim muassasasidagi innovatsion jarayonlar esa o‘z navbatida quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Ta’lim oluvchilar uchun ijtimoiy-madaniy qadriyatlar tizimining shakllanganligi, ta’lim mazmunining shaxsga va ehtiyojlarga yo‘nalganligi.

2. Ta’limning ekotizimlarga (davlat, jamiyat, ishlab chiqarish, ijtimoiy institutlar va boshq.) tezkor moslashish darajasi, barqaror rivojlanish maqsadlariga yo‘nalganligi, ta’lim sifatini doimiy (uzluksiz) ravishda takomillashtirib borish zarur.

3. Oliy ta’lim muassasalarining faoliyat yo‘nalishlari va ta’lim xizmatlari traektoriyasining kengayishi, diversifikatsiyasi hamda globallasuvi.

Umuman olganda, jamiyat va iqtisodiyotning rivojlanishi bilan universitetlar funksiyalarining rivojlanish jarayonlari ham ma’lum bir tendensiyalarga ega bo‘lgan holda vaqt o‘tishi bilan ular o‘zgarib va takomillashib borgan va bu holat hozir ham davom etmoqda (1.2.4-jadval).

#### **1.2.4-jadval. Universitetlar funksiyalarining rivojlanishi**

Universitetlar	Mazmuni, faoliyat yo‘nalishlari
----------------	---------------------------------

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PQ-5847-son farmon.

<b>transformatsiyasi bosqichlari/modellar</b>	
<b>Universitet - 1.0</b>	Ta'lim maqsadlariga yo'naltirilgan jamiyat instituti. Bilimlar translyatsiyasi, talabalar iqtidorini rivojlantirish, an'anaviy iqtisodiyot sohalari uchun kadrlar tayyorlash jrayonlarida ijtimoiy lift vazifasida maydonga chiqqan
<b>Universitet - 2.0</b>	Ta'lim va tadqiqotchilik maqsadlariga yo'naltirilgan jamiyat instituti. Klassik nemis universitetlari modeli (Gumbold)ga asoslangan, asosiy yo'nalishlari tadqiqotchilik faoliyati orqali yangi bilimlarni genereatsiyalash; mehnat bozori sub'ektlari uchun konsalting xizmatlarini ko'rsatish; sanoat va hamkorlar buyurtmalari asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish, texnologiyalar yaratish; intellektual mulkni boshqarish mexanimzlarining mavjud emasligi
<b>Universitet - 3.0</b>	Ta'lim, tadqiqotchilik va tijoratlashtirish maqsadlariga yo'naltirilgan jamiyat instituti. Texnologiyalarni tijoratlashtirish faoliyatidagi biznes bilan samarali hamkorlik. Ta'lim xizmatlari diversifikatsiyasi
<b>Universitet - 4.0</b>	Ekotizimni rivojlanishi. Bilimlar kapitalizatsiyasi, yuqori texnologiyalar sohasidagi liderlik, virtual faoliyat.

Ilmiy-pedagogik tahlillarimiz davomida O'zbekistonda ham oliy ta'lim muassasalari transformatsiyasining rivojlanish bosqichlari, uning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etildi. Bizga ma'lumki, Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining(2019) qabul qilinishi oliy ta'lim muassasalari transformatsiyasini amalga oshirishda metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Jumladan, mazkur Konsepsiyada oliy ta'lim muassasalarining ta'limdagi innovatsion jarayonlar hamda ilg'or xorijiy tajribalar asosida ta'lim dasturlari, o'qitish texnologiyalari, professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va shu asnda oliy ta'lim muassasalarining innovatsion madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq vazifalarning belgilanishi transformatsion jarayonlarni amalga oshirishning zaruriy tashkiliy-pedagogik shartlarini belgilab berdi.

Mazkur Konsepsiya doirasida so'nggi uch yilda O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalariga qamrovni oshirish, qabul kvotalarining ortishi hamda xorijiy oliy ta'lim muassasalari kampuslari, qo'shma ta'lim dasturlarini joriy etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda (1.2.5-jadval).

#### **O'zbekistonda oliy ta'lim tizimining rivojlanishi (raqamlarda)**

<b>Ko'rsatkichlar /yillar</b>	<b>2016/2017 o'quv yili</b>	<b>2017/2018 o'quv yili</b>	<b>2018/2019 o'quv yili</b>	<b>2019/2020 o'quv yili</b>
OTM soni	77	86	95	132
Qabul kvotalari	57 907	66 316	102 741	
Talabalar soni	279 674	314 467	344 790	590 077

Professor- o'qituvchilar soni	23 302	25 418	26 297	29 988
----------------------------------	--------	--------	--------	--------

Xususan, O'zbekiston va xorijiy oliy ta'lim muassasalarining o'zaro kelishuvi hamda qo'shma ta'lim dasturlari asosida o'qitish yo'lga qo'yildi.

Jumladan, 16 ta OTM da AQSh, Germaniya, Rossiya, Polsha, Xitoy, Janubiy Koreya, Belaruss kabi rivojlangan davlatlarning 28 ta hamkor xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda 43 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, 10 magistratura mutaxassisliklari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari amaliyotga joriy etildi.

Qo'shma ta'lim dasturlarini joriy etishda samarali hamkorlik amalga oshirilayotgan davlatlardan biri bu Rossiyadir. 2018 yil 18-19 oktabr kunlari Toshkent shahrida O'zbekiston-Rossiya ta'lim forumi bo'lib o'tdi. Forumda 400 dan ortiq ta'lim va ilmiy sohalar xodimlari ishtirok etishdi, shu jumladan, Rossiya Federatsiyasidan 147 nafar.

Forum doirasida O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan muzokaralar olib borildi va 114 ta ta'lim va ilmiy faoliyatga bag'ishlangan ikki tomonlama hamkorlik kelishuvlari imzolandi. Bugungi kunga qadar imzolangan barcha kelishuvlarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritalari" tasdiqlandi.

Shuni alohida qayd etish zarurki, Forum doirasida imzolangan hamkorlik kelishuvlari natijasiga ko'ra mamlakatimizda yangi 2019/2020 o'quv yilga qadar Rossiya Federatsiyasining 6 ta oliy ta'lim muassasasi, ya'ni:

Moskva energetika instituti (MEI);

D.I. Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti;

Astraxan davlat texnika universiteti;

Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti (MGIMO);

A.S.Pushkin nomidagi rus tili davlat instituti;

Jismoniy madaniyat, sport, yoshlar va turizm Rossiya davlat universiteti filiallari faoliyatini yo'lga qo'yishga kelishib olindi va ularning aksariyati o'z faoliyatini boshladi. Forum doirasida tasdiqlangan "Yo'l xaritasi" ga muvofiq:

2018 yil yakuniga qadar, Rossiya Federatsiyasining 10 ta oliy ta'lim muassasasi bilan yo'lga qo'lgan qo'shma ta'lim dasturlarida 26 ta ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlashda ta'lim jarayoniga Rossiya Federatsiyasi oliy ta'lim muassasalaridan

18 nafar professor-o'qituvchilar o'quv jarayoniga jalb etish;

- forum doirasida imzolangan kelishuvlarga asosan 50 nafar professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlar Rossiya Federatsiyasi oliy ta'lim va ilmiy muassasalarida malaka oshirish va stajirovkaga yuborish;

- Rossiya Federatsiyasi oliy ta'lim muassasalarida ilmiy faoliyat olib borish uchun 50 dan ortiq ilmiy izlanuvchilar aspirantura va doktoranturada o'qishga yuborish;

- respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida pedagogik va ilmiy faoliyatga 261 nafar Rossiya Federatsiyasi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va olimlari jalb etish;

2019 yil iyunga qadar, Rossiya Federatsiyasi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda o'quv rejalari va fan dasturlari tayyorlanadi hamda tasdiqlanadi. Talabalarni o'qitish sarf-xarajatlari hisoblanadi va ikki tomonlama kelishilib to'lov-kontrakt miqdorlari hamda qabul kvotalari belgilash;

- Rossiya Federatsiyasi oliy ta'lim muassasalaridan 2019/2020 o'quv yilida o'quv jarayoniga jalb etiladigan 142 nafar professor-o'qituvchilar ro'yxati kelishilgan holda shakllantirish;

2019/2020 o'quv yiliga qadar, tashkil etiladigan Rossiya Federatsiyasi oliy ta'lim muassasalarining filiallarida kadrlar tayyorlanadigan ta'lim yo'nalishlari belgilanadi, filiallar faoliyatini yo'lga qo'yish uchun binolar aniqla, xamkor oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalarini belgilash va tashkil etish bo'yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;

- fizika, matematika, kimyo, biologiya, biotexnologiya, filologiya, pedagogika, iqtisodiyot, texnika, ishlab chiqarish va boshqa ta'lim yo'nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalarida qo'shma ta'lim (bakalavriat 2+2 yoki 3+1, magistratura 1+1) dasturlari asosida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yish kabi vazifalar belgilandi.

Tadqiqotlarimiz davomida olib borilgan ilmiy-pedagogik tahlillar hamda emperik kuztishlarimiz shundan dalolat berdiki, oliy ta'lim muassasalaridagi transformatsion jarayonlar bu faqatgina "muayyan o'zgarishlarni kiritish" yoki "qayta tiklanish" jarayonlarigina bo'lib qolmasdan, u konseptual nazariyalarga asoslanuvchi fundamental jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalari transformatsiyasining tashkiliy-pedagogik sharoitlarini yaratishda quyidagi o'ziga xos jihatlarni hisobga olish lozim:

1. Kadrlar tayyorlashga nisbatan qo'yiladigan jamiyat va davlatning ijtimoiy buyurtmasi. Oliy ta'lim muassasalaridagi kadrlar tayyorlash siyosati jamiyat va davlatning mazkur sohadagi kutuvlari hamda ijtimoiy buyurtmasiga muvofiq bo'lishi.

2. Transformatsion jarayonlarga asos bo'luvchi normativ-huquqiy mexanizmning mavjudligi. Bunda oliy ta'lim muassasasi transformatsiyasini amalga oshirishga, ilg'or xorijiy tajribalar transferiga xizmat qiluvchi shart-sharoitlarni yaratishda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, implementatsiya qilinishi muhim jihat hisoblanadi.

3. Transformatsion jarayonlardagi tizimlilik va uzviylik, uzluksizlikning ta'minlanishi. Uzluksiz ta'lim turlari, shakllari va ta'lim mazmuni o'rtasidagi vertikal va gorizontal transformatsiyaning amalga oshirilishi.

4. Ta'limning milliy, umuminsoniy qadriyat ekanligi. Ta'lim mazmunida har bir millatning ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi, millat sifatida shakllanish xarakteri, umuminsoniy qadriyatlarning shakllanishi hamda tolerantlik kabi sifatlarni namoyon etadi. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalaridagi transformatsion jarayonlarda ta'lim mazmunining milliy va umuminsoniy manfaatlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim omil ekanligini nazarda tutish maqsadga muvofiq bo'ladi.

5. Ta'lim-tarbiya va boshqaruv shakl, metod va vositalarining innovatsion xarakterda ekanligi, zamonaviy yondashuvlar va nazariyalarning amaliyotga tatbiq etilishi. Bu borada rahbar kadrlar, professor-o'qituvchilar va xodimlarning kompetentligi.

Demak, yuqorida keltirilgan ilmiy-pedagogik tahlillar asosida xulosa qilishimiz mumkinki, oliy ta'lim muassasalari transformatsiyasi ularning innovatsion faoliyatini ta'minlaydigan muhim omil bo'lib, bu jarayon yaxlit yondashuv sifatida, ya'ni universitetlar faoliyatini tashkiliy-institutsional, boshqaruv, mazmunli-texnologik hamda natijaviy-baholash mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq holatda qaralganda o'zining ijobiy samarasini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.O'zbekiston, 2018. – 46 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni /O’RQ-637. – T.: O'zbekiston, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017. 6-son, 70-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi «2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5544-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.09.2018 y., 06/18/5544/1951-son.
5. Hutmacher W. Key competencies for Europe//Report of the Symposium Bern, Switzerland 27-30 March, 1996.
6. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Usmonboeva M., Inog'omova D.. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo'llanma.– T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – 193 b.
7. Turg'unov S.T. Ta'lim muassasalarini boshqarishda innovatsion faoliyat. // j.Uzluksiz ta'lim. – T., 2006. - №4. – B.4.
8. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami sayti.
9. <https://www.bimm.edu.uz/>.

INNOVATIVE  
ACADEMY